

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>H.A.Abdualiyev</b>	
Tabiiy-geografik omillarning aholi joylanishiga ta'siri bo'yicha ayrim xulosalar (Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida) .....	101
<b>M.X.Otamirzayeva</b>	
Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari .....	108
	ILMIY AXBOROT
<b>M.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov</b>	
Sintaktik-stilistik figuralar konvergentsiyasi .....	115
<b>A.A.Mirzayev</b>	
Ibn Al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari .....	119
<b>J.J.Shodiyev</b>	
Inson qadrini yuksaltirish borasida Abdulqodir Bedilning falsafiy g'oyalari .....	125
<b>M.И.Темирова</b>	
F.M.Dostoevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" romanida ota va farzand munosabatlari.....	130
<b>A.M.Mamajonov</b>	
Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari .....	135
<b>P.Sh.Kaxramonova</b>	
Badiiy asar tili va ekolingvistika (O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani misolida) .....	141
<b>J.U.Umaraliyeva</b>	
Zavqiy she'riyatida antroponimlarning qo'llanilishi .....	144
<b>D.S.Ergasheva</b>	
O'zbek xalq ertaklari asosida vatanparvarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini takomillashtirish .....	148
<b>D.X.G'aniyeva</b>	
"Ta'lim" mikromaydonining paremiologik birliklari .....	153
<b>X.X.Abduraxmonov</b>	
Maktab o'quvchilarning yengil atletika mashqlari orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish .....	157
<b>G.T.Hojikarimova, Sh.Usarova</b>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kompetensiyasini rivojlantirish usullari (tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish fani misolida) .....	161
<b>O.Q.Abdullayev</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari .....	164
<b>J.Sh.Nazarov</b>	
Pedagogik OTM talabalarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish hamda yuksaltirishning amaliyotdagi holati .....	168
<b>Sh.F.Latipov</b>	
Madaniy kontekstda lakunaga yondosh hodisalar .....	173
<b>D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova</b>	
Siddiq Mo'min ijodida mehr konseptining ifodalanishi.....	175
<b>Sh.M.Robilova</b>	
Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik va pedagogik ahamiyati .....	179
<b>M.Sotvoldiyeva, G.Mirodiljonova</b>	
Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy usullar.....	183
<b>R.R.Abdusattorov</b>	
Bolalarni suzishga o'rgatishda tayyorlov guruhining nazariy va amaliy asoslari.....	186
<b>H.Arabboyev</b>	
O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish texnologiyasi .....	192
<b>F.Xalikov</b>	
Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	197
<b>M.I.Yusupova</b>	
Rus tilidagi ommaviy axborot vositalarida "Vatanparvarlik" konseptining ifodalanishi .....	204

**TABIIY-GEOGRAFIK OMILLARNING AHOLI JOYLANISHIGA TA'SIRI BO'YICHA  
AYRIM XULOSALAR (FARG'ONA VODIYSI VILOYATLARI MISOLIDA)**

**НЕКОТОРЫЕ ВЫВОДЫ О ВЛИЯНИИ ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ  
НА РАСПОЛОЖЕНИЕ НАСЕЛЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕГИОНОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ)**

**SOME CONCLUSIONS ABOUT THE INFLUENCE OF NATURAL AND GEOGRAPHICAL  
FACTORS ON THE LOCATION OF POPULATION (BASED ON THE EXAMPLE OF THE  
FERGHANA VALLEY REGIONS)**

**<sup>1</sup>Abduvaliyev Hayitboy Abdug'aniyevich**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti doktoranti, geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

**Annotatsiya**

*Maqolada Farg'ona vodiysi viloyatlari hisoblangan Namangan, Farg'ona va Andijon viloyatlari aholisining joylanishida tabiiy-geografik omillarning rolini tadqiq etish asosida ishlab chiqilgan asosiy xulosalar yoritilgan. Xulosalar tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, Farg'ona vodiysining har bir landshaft balandlik mintaqalari uchun alohida ishlab chiqilgan. Bunda har bir ma'muriy tumanlar uchun ajratib olingan alohida landshaft-balandlik mintaqalarining bugungi kun nuqtai-nazaridan hududiy tashkil etish imkoniyatlari ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan hududiy tashkil etish imkoniyatlari esa yakunda landshaft-balandlik mintaqasi doirasida umumlashtirilgan. Mazkur tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, geografiyaning eng zamonaviy tadqiqot usullaridan hisoblangan tizimli tahlil, statistik baholash, geografik axborotlash tizimlari usullaridan foydalanilgan.*

**Аннотация**

*В статье освещены основные выводы, сформулированные на основе изучения роли природно-географических факторов в расселении населения Наманганской, Ферганской и Андижанской областей, являющихся регионами Ферганской долины. Исходя из цели исследования, выводы были разработаны отдельно для каждого ландшафтно-высотного региона Ферганской долины. При этом развиты возможности региональной организации отдельных ландшафтно-высотных регионов, выделенных для каждого административного района с сегодняшней точки зрения. Развитые возможности региональной организации окончательно суммируются в рамках ландшафтно-возвышенного региона. Исходя из цели данного исследования, были использованы методы систематического анализа, статистической оценки, геоинформационные системы, которые считаются наиболее современными методами исследования географии.*

**Abstract**

*The article highlights the main conclusions formulated on the basis of studying the role of natural and geographical factors in the settlement of the population of Namangan, Ferghana and Andijan regions, which are regions of the Ferghana Valley. Based on the purpose of the study, the conclusions were developed separately for each landscape-altitude region of the Fergana Valley. At the same time, the possibilities of regional organization of individual landscape and high-altitude regions allocated for each administrative district from today's point of view have been developed. The developed capabilities of the regional organization are finally summed up within the landscape-elevated region. Based on the purpose of this study, methods of systematic analysis, statistical evaluation, geoinformation systems were used, which are considered the most modern methods of geographical research.*

**Kalit so'zlar:** *Tabiiy geografik omillar, aholining joylanishi, aholi zichligi, landshaft balandlik mintaqalari, tabiiy-demografik imkoniyat, tabiiy-demografik imkoniyat bali, aholini hududiy tashkil etish.*

**Ключевые слова:** *Природно-географические факторы, размещение населения, плотность населения, ландшафтно-высотные регионы, природно-демографическая возможность, показатель природно-демографической возможности, территориальная организация населения.*

**Key words:** *Natural geographical factors, population location, population density, landscape height regions, natural-demographic opportunity, natural-demographic opportunity score, territorial organization of the population.*

**KIRISH**

Aholining bugungi hududiy tarkibini shakllanishiga mintaqada yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri ko'p bo'layotganligini ikayd etish lozim. Ammo dastlabki aholining hududiy tarkibini shakllanishi tabiiy omil asosida kechganligini va bugungi demoekologik muammolar yechimida bu omilning aholida o'rni borligi ta'kidlash zarur.

Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib aholining hududiy tarkibini takomillashtirishda joyning tabiiy-landshaft omili har tomonlama o'rganildi. Shuning uchun dastlabki tavsiyalar landshaft

balandlik mintaqalari bo'yicha ishlab chiqildi. Har bir mintaqaning tabiiy-demografik imkoniyati (TDI) va amaldagi demografik yuki tahlil qilinib, unga mos tavsiyalar ishlab chiqildi. Tavsiyalarni landshaft balandlik mintaqalari bo'yicha berilishiga sabab landshaft tabiatning nisbatan bir xil, bir jinsli elementlaridan tashkil topgan bir butun, yaxlit hudud ekanligidir.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Aholining hududiy joylashuvi va sni hududiy tashkil etish masalalari bilan A.Ye.Probst, A.Chistabayev, Z.Akramov, A.Soliev, A.Kashin, Y.Ahmadaliyev, T.Mallaboyev, Sh.Jumaxanov, Sh.Sharipov, V.Federko, H.Abduvaliyev, X.Oblaqulov kabi tadqiqotchilar shug'ullanishgan. O'tgan davr mobaynida hududiy ishlab chiqarish kompleksi to'g'risidagi ta'limotlar, sanoat klasterlari nazariyalari, jamiyatning hududiy tashkil etilishi haqidagi ta'limotlar shakllantirildi. Biroq, ularning barchasida hududdan maksimal foydalanish, ko'proq iqtisodiy foyda olish ko'zda tutildi. Hududning haqiqiy holati, uning tabiiy-geografik sharoiti haqida fikr yuritilmadi. Go'yoki hudud tep-tekis maydon va unda istalgancha joylashtirishni amalga oshirish mumkindek qaraldi.

Landshaftga berilgan tavsiya va unga landshaft tomonidan bo'ladigan reaksiya (o'zgarish) bir landshaft doirasida bir xil yo'nalishda davom etadi. Aytaylik, past tog' landshaftining aholi tomonidan o'zlashtirilishida dastlabki o'zgarishga (ko'proq salbiy tomonga) uchraydigan landshaft komponenti joy relyefi va tuproq qoplamidir. Bu landshaftda relyefning qiyaligi suv va shamol eroziyasining yuzaga kelishi, tuproqning qoplamining yuvilishi hamda aynan shu relyef tufayli tabiiy ofatlarning (sel, tog' daryolari va ko'llarining toshishi, surilma, ko'chki...) intensivlashuvi kuzatiladi. Biroq, landshaft doirasida berilgan tavsiya va takliflarni amalga oshiruvchi (hayotga tadbiiq etuvchi) ma'muriy boshqaruv markazlarining mavjud emasligi berilgan tavsiyalarni amalga oshirish imkonini bermaydi. Bu esa tadqiqotning dolzarbligini belgilovchi asosiy tamoyildir [1].

Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad Farg'ona vodiysida aholining hududiy joylashuvini tabiiy-landshaft omili asosida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsad doirasida aholini hududiy tashkil etish nazariyasida tabiiy omilning roli va ahamiyatini tahlil etish, aholini hududiy tashkil etilishini takomillashtirishda tabiiy-landshaft imkoniyatlaridan foydalanish vazifalari belgilangan.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Avvalgi tadqiqotlarda shlab chiqilgan uslubiyotlar bo'yicha hamda ulardan olingan xulosalar natijasida tabiiy va ma'muriy bo'linishni umumlashtirish yo'nalishida tavsiyalar berildi. Buning uchun har bir landshaft balandlik mintaqasining qaysi ma'muriy tuman va qishloq fuqarolar yyeg'inlari (QFY) hududida joylashganligi aniqlab olindi. Bunday yondoshuv ma'muriy tumanlarda aholining hududiy tarkibini takomillashtirishda landshaft omilini to'la inobatga olish imkoniyatini beradi. Tadqiqotda A.D.Nikanorova tasnifi bo'yicha ajratib olingan 7 ta landshaft balandlik mintaqasi asos qilib olinganligi sababli [5] tavsiyalar ushbu landshaft balandlik mintaqalari bo'yicha yuqoridan quyiga quyiga pasayib borish tartibida berildi:

1) Past tog'lar landshaft balandlik mintaqasi. Vodiyning Pop (53 %), So'x (80 %), Farg'ona (14%), O'zbekiston (28 %), Xo'jaobod (11 %), Kosonsoy (7 %), Beshariq (15 %), Yangiqo'rg'on (16 %), Marhamat (13 %) tumanlarining 7 foizidan 80 foizigacha bo'lgan hududlarini egallaydi. Bu hududlarda aholini «chorlovchi» landshaft elementlari (mo'tadil iqlimli havo, gidrografik to'ring zichligi, unumdor tuproq) miqdori boshqa landshaft balandlik mintaqalaridan nisbatan birmuncha ustun bo'lsa-da, «cheklovchi» ta'sir etuvchi relyef qiyaligining kattaligi, hududning parchalanganligi aholini hududiy tashkil etish imkoniyatlarini pasaytirgan. Past tog'lar mintaqasining yuqori qismida aholi deyarli yashamaydi. Aholi zichligi Pop va Farg'ona tumanlarida 30-70 kishi, So'x tumanida 135 kishi, Yangiqo'rg'on tumanida esa qariyb 430 kishini tashkil etadi. Bu landshaft balandlik mintaqasining umumiy maydoni vodiyning 12,8 foiz aholisining esa 1,3 foizini o'zida jamlagan. Aholi zichligi esa o'rtacha 51,8 kishi bilan vodiya aholi zichligi eng siyrak bo'lgan mintaqasi sifatida e'tirof etildi. Mintaqa ma'muriy tumanlari maydoni jihatidan yirik ma'muriy tumanlar hisoblanib, ularning past tog' landshaftlari hududi hisobga olinmasa, maydon deyarli o'rtacha ko'rsatkich kasb etishi ma'lum bo'ladi.

Kelajakda bu mintaqaga vodiyning ekologik tizimidagi bajaradigan funksiyasini, tog'-tekislik o'rtasidagi modda va energiya almashinuv tizimidagi o'rnini e'tiborga olib aholi soni va zichligini u qadar ko'paytirish tavsiya etilmaydi [2]. Bu hududlarni o'zlashtirish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan tabiiy texnogen o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Jumladan, Pop-Angren temir

## GEOGRAFIYA

yo'lining qurilishi, Toshkent-Qo'qon avtomobil yo'lining kengaytirilishi, Chodak-Chorkesar zonasidagi foydali qazilmalarni o'zlashtirish ko'lamining kengayishi, Buloqboshi tosh karyerining, Ulutov (Marhamat tumani), Quvasoy, Farg'ona tumani hududlaridan qazib olinayotgan va qazib olish rejalashtirilayotgan foydali qazilmalar ko'lamining kengayishi o'z-o'zidan bu hududlarda aholi sonining ortishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bu jarayonni boshqarishda ya'ni, aholini hududiy tashkil etishda faqatgina iqtisodiy-ijtimoiy samarani emas, landshaftning TDIni e'tiborga olishni qat'iy yo'lga qo'yish zarur.

Bu landshaft balandlik mintaqasida TDIdan kelib chiqib, aholini hududiy joylashishini takomillashtirish bo'yicha taklifni mintaqaning tipik tumani hisoblangan Pop misolida ko'rib chiqamiz. Past tog'lar mintaqada TDI balining vodiy bo'yicha eng past (17,6 ball) bo'lib, aholi zichligani atigi 27,7 kishini tashkil etadi. Kelajakda mintaqada tumanning o'rtacha (optimal) ko'rsatkichga erishish uchun aholi zichligini yana 50 kishiga ko'paytirish, landshaftning TDI bo'yicha meyeriy zichlikka erishish uchun esa aholini yana 340 kishigacha oshirish imkoniyati mavjud.

TDIdan samarali foydalanish maqsadida mazkur mintaqada rekreatsiya, turizm va tabiatni muhofaza qilish, o'rmonchilik, tog' bog'dorchiligi sohalariga ixtisoslashgan doimiy (mavsumiy) aholi maskanlarini yaratish imkoniyatidan foydalanish zarur. Bu borada Yevropa davlatlarining tog'li hududlardan foydalanish tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

2) Tog' oldi prolyuvial tekisliklari landshaft balandlik mintaqasi vodiyning Pop (19 %), Yangiqo'rg'on (53 %), Kosonsoy (41 %), Farg'ona (19 %), Chortoq (32 %), So'x (20 %), Quva (14 %) tumanlarining 14 foizidan 53 foizigacha bo'lgan hududlarini egallaydi. Bu hududlarda aholini «chorlovchi» landshaft elementlaridan qiya tekis relyef shakli, mo'tadil havo, tuproqning sho'rlashish va yuvilish xavfining yo'qligi, gidrografik to'rning nisbatan zichligi, suv taqsimlash inshootlarining mavjudligidir. Aholi joylashuviga «cheklovchi» ta'sir etuvchi landshaft elementlaridan tuproq unumdorligining nisbatan pastligi xarakterlidir. Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida bu landshaft balandlik mintaqasi aholi hududiy tashkil etilishi kuzatilgan dastlabki hududlaridan hisoblangan bo'lsa-da, keyinroq aholini chorvachilikdan dehqonchilik bilan shug'ullanishga o'tishi, quyida konussimon yoyilmalar, allyuvial tekisliklarning o'zlashtirilishi bilan bu landshaft balandlik mintaqasini o'zlashtirish biroz sustlashdi. Shunday bo'lsa-da, bu landshaft balandlik mintaqasining ayrim hududlarda aholining yuqori zichligi yuzaga kelgan. Xususan, Kosonsoy, So'x va Farg'ona tumanlari ushbu landshaft balandlik mintaqalarida aholi zichligi vodi y o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori [3]. Past tog'lar landshaft balandlik mintaqasidan farqli ravishda bu landshaftlarning barcha qismlari kishilar bilan band. Umumiy maydoni vodiyning atigi 9,0 foizini egallab, vodi aholisining esa 4,4 foizini o'zida jamlagan. Aholi zichligi esa o'rtacha 252,5 kishiga teng bo'lib, vodiyning aholi zichligi siyrak bo'lgan uchinchi mintaqasi hisoblanadi.

Ushbu mintaqaga kiruvchi hududlarning ham aksariyati maydon jihatdan yirik ma'muriy tumanlar hisoblanadi. Istiqbolda mintaqada aholi soni va zichligini ko'paytirish an'anaviy xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirish bilan bevosita bog'langan. Mintaqada suv resurslari va qadimdan yuqori malakaga ega bo'lgan aholini mavjudligini e'tiborga olib bog'dorchilikni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Pop, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy hududlarida aholining olma, nok, shaftoli, Quvada anor, So'xda ildiz mevalilar (sabzi, kartoshka, yeryong'oq) yetishtirishdagi mehnat malakalarini inobatga olib aholi joylashuvini takomillashtirish zarur.

Mintaqaning TDIdan bugungi kundagi foydalanish darajani kelajakda ham saqlab qolish, demografik yukni ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadga muvofiq.

3) Adirlar landshaft balandlik mintaqasi vodiyning Pop (17 %), To'raqo'rg'on (28 %), Farg'ona (38 %), Andijon (52 %), Marhamat (33 %), Yangiqo'rg'on (19 %), Chortoq (32 %), To'raqo'rg'on (28 %), Jalaquduq (32 %), Quva (12 %), Qo'rg'ontepa (16 %), Xo'jaobod (14 %), Kosonsoy (32 %), Buloqboshi (12 %), Asaka (14 %) tumanlarining 12 foizdan 52 foizigacha bo'lgan hududlarini egallaydi. Mintaqa ikki qismdan iborat bo'lib, Farg'ona vodiysining shimoli-g'arbiy, shimoliy, janubiy, janubi-sharqiy va sharqiy hududlarini egallaydi. Birinchi qismi tor doirada Farg'ona viloyatining janubidan (Farg'ona tumani g'arbidan) Andijon viloyatining shimoliy qismlariga (Jalaquduq, Qo'rg'ontepa tumanlari shimoliga) qadar davom etadi. Uning shimolda joylashgan ikkinchi qismi Namangan viloyatining Pop, Chust, Kosonsoy, Yangiqo'rg'on, Chortoq

tumanlari bo'ylab, shimoli-sharqiy yo'nalishda davom etadi. Adirlar yaxlit bo'laklarni hosil qilmaydi, ularni daryo va soylarning vodiylari kesib o'tadi.

Mintaqa vodiyning 12,3 foiz maydonini egallab, aholisi 500 ming kishi, bu vodiylar aholisining 5 foizidir. Aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> maydonga 217,9 kishiga teng. O'z-o'zidan ma'lumki aholi zichligi bo'yicha vodiydagi past tog'lar mintaqasidan keyingi ikkinchi landshaft balandlik mintaqasidir. Aholi zichligining o'zi ham hudud aholi yashashi va xo'jalikni tashkil etish holati u qadar qulay emasligini ko'rsatadi.

Hududning ikki tarafidagi tog' oldi prolyuvial tekisliklari va konussimon yoyilmalarning prolyuvial-allyuvial tekisliklari landshaft balandlik mintaqalari balandligi adirlar landshaftidan past ekanligi sababli hududning tabiiy-drenaj holati juda yaxshi. Hudud gidrotermik koeffitsiyentining nisbatan yuqori bo'lishiga qaramasdan tabiiy suv manbalarining yetishmasligi, sug'orilish darajasi pastligi (nasoslar yordamida sug'orishning mumkinligi), nishablikning kattaligi, relyefning parchalanganligi tufayli aholining joylanishi biroz qiyinroq. Yuqoridagi omillar mintaqadan xo'jalik maqsadlarida foydalanishni ham bir oz qiyinlashtiradi.

Keyingi yillarda vodiylar aholisining zichlashib borishi tufayli adirlar mintaqasi kuchli o'zlashtirishga tortilmoqda. Bir tomondan buni ijobiy holat sifatida baholansa (xaydaladigan yerlarni kamaymasligi, aholi zichligini meyorlashuvi), ikkinchi tomondan adirlarning kuchli degradatsiyasiga sabab bo'lmoqda. Mintaqaning ayrim tumanlarida aholi zichligi qisqa vaqt ichida vodiylar o'rtacha ko'rsatkichidan ortib ketgan. Adir mintaqasida joylashgan va aholisi eng zich ma'muriy hudud Asaka tumanidir. Bu yerda aholi zichligi 1 km kv maydonga 913,6 kishiga teng. Shuningdek, Beshariq, Furqat, O'zbekiston, Rishton, Oltiariq, Norin, Uchqo'rg'on kabi tumanlarning qulay landshaft balandlik mintaqasi hisoblangan konussimon yoyilmalar landshafti aholi zichligidan ham yuqori ekanligini ko'rsatadi. Chortoq, Pop, Marhamat adirlarida aholi zichligi 100 kishiga yetmaydi.

Adirlar hududidan neft qazib olishning kamayishi bilan bu hududlardan topilgan shifobaxsh suvlar mintaqada kurort va rekreatsiya xo'jaligining jadal rivojlanishiga (Chimyon, Janubiy Olamushuk, Sho'rsuv, Rapqon, Chortoq, Kosonsoy sanatoriyalari negizida) va aholi sonining ortishiga sabab bo'ladi. Bu jarayonni mintaqaning TDlga moslab olib borish kelajakda aholi bilan bog'liq ijtimoiy-ekologik muammolarni kamaytiradi.

4) Adir oralig'i allyuvial-prolyuvial tekisliklari landshaft balandlik mintaqasi vodiyning Qo'rg'ontepa (84 %), Xo'jaobod (75 %), Marhamat (54 %), Buloqboshi (74 %), Farg'ona (19 %), Jalaquduq (68 %) tumanlari va Quvasoy shahar (24 %) hududining 19 foizdan 84 foizgacha bo'lgan hududlarini egallaydi. Mintaqa 650-700 m balandliklarni o'z ichiga olib, shimolda adirlar va allyuvial tekisliklar landshaftlari oralig'i, tog' oldi prolyuvial tekisliklar va konussimon yoyilmalarning allyuvial-prolyuvial tekisliklari oralig'idagi hududlarni band etadi. Janubda Farg'ona tumanidan Paxtaobod, Qo'rg'ontepa tumanlariga qarab cho'zilgan adirlar mintaqasining kesilgan hududlarini ishg'ol etadi. Adir oralig'i allyuvial-prolyuvial tekisliklar landshaftining Farg'ona vodiysining markaziga tomon quyi qismlarini konussimon yoyilmalarning prolyuvial-allyuvial tekisliklari va allyuvial tekisliklar landshaft balandlik mintaqalariga ulanib ketadi.

Bu mintaqa bevosita daryo va soylarning vodiyning markaziga tomon yo'nalgan qismlarida joylashganligi aholini «chorlovchi» landshaft elementi sifatida qaraladi. Shuningdek, relyef qiyaligining meyor darajasida ekanligi, tuproq unumdorligining yuqoriligi, gidrografik to'ring zichligi yuqoriligi kabi omillar ham «chorlovchi» omil vazifasini o'tagan. Shuningdek, sug'oriladigan yerlar ulishi 60-70 foizga teng. Albatta bu qulaylik omillari aholining yashashi va xo'jalikni tashkil etishi uchun imkoniyat darajasini oshirgan. Mintaqa vodiyning 7,5 foiz maydonini egallagan holda, aholining 11,8 foizi istiqomat qiladi. Aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> maydonga 817,5 kishi bo'lib, bu vodiyning zichligi bo'yicha uchinchi landshaft balandlik mintaqasidir. Marhamat tumanida 1 km<sup>2</sup> maydonga 995,3 kishi, Buloqboshi tumanida 984,7 kishi, Jalaquduq tumanida 671,3 kishi ekanligi mintaqada xo'jalikni tashkil etish qulay bo'lganligini bilan tavsiflanadi.

Ko'rinib turibdiki, mintaqada aholi yashashi va xo'jalikni tashkil etishda qulay imkoniyatlardan deyarli foydalanib bo'lingan. Bunday holatda mintaqaning TDIning bugungi holatida saqlab qolish yoki oshirish uchun ishchi kuchini o'ziga ko'p jalb etuvchi sanoat tarmoqlarini va urbanistik jarayonni rivojlantirishni tavsiya etish mumkin. Chunki, aholini shahar hududlarda yashashi va ko'proq sanoatda (ishlab chiqarish tarmoqlari) band bo'lish tabiiy landshaftlar zo'riqishini oldini olib ekologik-xo'jalik muvazanatni ta'minlaydi.

## GEOGRAFIYA

5) Konus yoyilmalarining prolyuvial-allyuvial tekisliklari mintaqasi vodiyning Asaka, Shahrixon, Andijon, Izboskan, Paxtaobod, Quva, Toshloq, Farg'ona, Rishton, Bag'dod, Uchko'prik, O'zbekiston, Beshariq, Uchqo'rg'on, Uychi, Namangan, To'raqo'rg'on tumanlarining asosiy landshaft balandlik mintaqasidir. Mintaqa 450-500 m balandlikdagi tekisliklarni o'z ichiga olib, vodiyning markaziy qismlari tomon pasayib borgan, adirlar va adir oralig'i allyuvial-prolyuvial tekisliklari landshaft balandlik mintaqalarining quyi qismlarini egallaydi. Mintaqa asosan daryo va soylarning yoyilmalari egallagan hududlarni o'z ichiga olib, vodiyning janubiy (So'x va Shohimardonsoy daryolari yoyilmalari), janubi-sharqiy (Andijonsoy, Shahrixonsoy yoyilmalari) va shimoli-sharqiy (Norin, Chortoqsoy, Kosonsoy yoyilmalari) qismlarini band etadi. Janubdagi hududlar boshqalariga qaraganda birmuncha kengroq va kattaroq maydonni egallaydi. Mintaqada inson yashashi uchun «chorlovchi» omillari talab darajasida bo'lganligi uchun bizning tadqiqotda vodiyning inson yashashi va xo'jalikni tashkil etilishi nuqtai-nazardan eng optimal hudud sifatida e'tirof etildi.

Konus yoyilmalarining prolyuvial-allyuvial tekisliklari landshaft balandlik mintaqasi vodiyning 27,4 foiz maydonini egallagan va u eng katta landshaft balandlik mintaqasidir. Unda 4445 ming aholi istiqomat qilib, bu vodiyl aholisining qariyb 46 foizini tashkil qiladi. Aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> maydonga 868,8 kishiga teng. Ushbu zichlik vodiyl landshaftlari mintaqasi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi hisoblanadi. Aholi yashashi va xo'jalikni tashkil etish nuqtai-nazardan o'ta qulay bo'lgan bu mintaqa vodiyning aholisi 100 ming kishidan oshgan 3 ta ya'ni, Qo'qon, Marg'ilon va Andijon shaharlarini ham o'z ichiga oladi. Konus yoyilmalarining prolyuvial-allyuvial tekisliklari mintaqasida joylashgan Qo'qon shahrida bugungi kunda zichlik 1 km<sup>2</sup> maydonga 6829,7 kishiga teng. Bu bir tomondan ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri bo'lsa, boshqa tomondan shahar hududining tanlanishi va tashkil etilishi bevosita tabiiy omillarning ta'sirida yuzaga kelganligidan dalolatdir. Agar shahar boshqa landshaft balandlik mintaqasida joylashganda bu qadar zichlikka erishmagan bo'lar edi.

Oxirgi 100 yilda vodiyl aholisining hududiy tashkil etilishi aynan shu mintaqada yuz berdi. Hudud ham tabiiy imkoniyatlar darajasida, ham iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlar darajasida ham mukammallikka ega. Yana shuni ta'kidlab o'tish zarurki, bu mintaqaning asosiy tabiiy geografik omiliga qo'shimcha gidrografik imkoniyatning yuqori ekanligini ham unutmashlik lozim.

Bu landshaft balandlik mintaqasida TDI dan kelib chiqib, aholini hududiy joylashishini takomillashtirish bo'yicha taklifni mintaqaning Rishton tumani misolida ko'rib chiqamiz. Konus yoyilmalarining prolyuvial-allyuvial tekisliklari mintaqasining TDI bali vodiyl bo'yicha eng yuqori ballga ega (30,4 ball). Tumanning mazkur landshaftida aholi zichligi 706,4 kishini tashkil etadi (8-ilova). Bu ko'rsatkich tumanning o'rtacha (optimal) aholi zichligidan 58 kishiga, landshaftning TDI bo'yicha meyoriy zichligidan 65 kishiga yuqori ekanligi kuzatiladi. Bu raqamlarni e'tiborga olib mazkur landshaft balandlik mintaqasida hududning TDI to'liq ishlatib bo'linganligi, kelajakda faqatgina iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatni ishga solib, mazkur mintaqaning demografik yukni optimallashtirish taklif etiladi. Buning uchun bu landshaft balandlik mintaqalarida aholini ko'p mehnat va intellektual salohiyat talab qiladigan sanoat tarmoqlariga va yirik shaharlarga jalb etish tavsiya etiladi. Bunday mintaqalarda aholi maskanlarigi «yo'ldosh shaharlar» maqomini berish orqali [7] va erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali demografik bosimni biroz yumshatish imkoniyati mavjud.

Mamlakatimizda olib borilayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy siyosat negizida «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» ishlab chiqildi. Mazkur Taraqqiyot strategiyasidagi 33-maqсадida «Hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish», «Shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi «Shaharlar qulayligi» indeksini joriy etish», «Aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish» kabi maqsadlar belgilangan bo'lib, bunday maqsadlar belgilanishining asosiy sababi ham qulay aholi maskanlari shakllantirish hamda ularning barqarorligiga, umri boqiyiligiga erishishdan iboratdir [6, 7] bo'lishi kabi vazifalar belgilangan bo'lib, bu masalalar aynan tabiiy demografik imkoniyatni hisobga olishni nazarda tutgan.

6) Qadimgi allyuvial tekisliklar landshaft balandlik mintaqasi vodiyning Bo'ston, Ulug'nor, Yozyovon, Qo'shtepa, Oltiariq, Buvayda, Furqat, Dang'ara, Mingbuloq kabi tumanlari hududining asosiy qismini egallaydi. Mintaqa konus yoyilmalarining quyi qismlarini va allyuvial tekisliklar

landshaft balandlik mintaqasining yuqori qismlarini ya'ni, bu ikki landshaft balandlik mintaqasi oraliqlarini ishg'ol etadi. Mintaqa qadimda Sirdaryo oqib o'tuvchi hudud bo'lgan, XIX asrning oxirlarigacha nisbatan botqoqli, qalin to'qayzor asosiy maydonni egallagan. Uning o'zlashtirilishi asosan, XX asr boshlarida boshlandi. Sun'iy sug'orishning joriy etilishi, paxta maydonlarining tashkil etilishi bilan ushbu hududlarda aholi soni o'sib bordi.

Mintaqa hududi 380-400 m balandliklarni o'z ichiga oladi. Relyefning qiyaligi katta bo'lmaganligi tufayli yer osti suvlarining sathi baland. Sun'iy drenajlar tizimidan keng foydalaniladi. Faqatgina yillik harorat yig'indisining yuqoriligi «chorlovchi» omil sifatida namoyon bo'lsa, tuproq bonitet balining pastligi, gidrografik to'r zichligining kamligi, tabiiy suv oqimining yo'qligi mintaqaning aholi yashashi uchun «cheklovchi» omili bo'lib xizmat qilgan.

Qadimgi allyuvial tekisliklar landshaft balandlik mintaqasi vodiyning 21,8 foiz maydonini egallab, 20 ta ma'muriy tumanlarning 9 foizdan 100 foizgacha bo'lgan hududidan tashkil topadi. Mintaqaning umumiy aholi zichlik yuqori bo'lmasa-da, Beshariq, Dang'ara, Buvayda tumanlarida aholi zichligi 800-900 kishidan oshadi. Bunday hududlar asosan undan quyida joylashgan allyuvial tekisliklar landshafti mintaqasiga yaqin bo'lganligidan yuzaga kelgan.

Ushbu mintaqa TDning optimal holatiga yaqinlashib qolgan bo'lsa-da (-32 kishi), hududda bir qator tabiiy landshaft omillari bu optimallikni mukammal emasligini bildirib turadi. Hududning konus yoyilmalarining prolyuvial-allyuvial tekisliklari mintaqasiga yondosh ekanligi va bevosita shu mintaqa ta'sirida zichlashib borishi sezilib turadi. Mintaqada konus yoyilmalarining prolyuvial-allyuvial tekisliklari mintaqasiga chegaradosh hududlarida urbanistik jarayonni jadallashtirish tavsiya etiladi.

7) Allyuvial tekisliklar mintaqasi vodiyning Baliqchi, Oltinko'l, Norin, Namangan tumanlari hududining asosiy qismini egallab, vodiy markaziy qismida yoki relyefning eng quyi pog'onasida joylashgan. U asosan Qoradaryo va Norin daryolari oqimi bo'ylab vodiyni sharqdan g'arbga kesib o'tadi. Mintaqaning janubiy qismlari qadimgi allyuvial tekisliklar landshafti bilan shimoliy qismlari konussimon yoyilmalarning prolyuvial-allyuvial tekisliklari va adir oralig'i allyuvial prolyuvial tekisliklar landshaftlari bilan chegaralanadi. Mintaqa ma'lum davrda qalin to'qayzorlar bilan qoplanganligi sababli ancha keyin o'zlashtirilgan.

Relyefning qiyaligi katta emas, faqat relyef qiyaligi daryo oqimi bo'ylab Sirdaryoning vodiyan chiqish qismiga qarab pastlashib boradi. Hudud doimiy oqar suvlar bilan bandligi sababli tabiiy drenaj holati kuchsiz. Gidrografik to'rning zichligi eng katta va o'z navbatida sug'orilish darajasi ham yuqori.

Allyuvial tekisliklar landshaft balandlik mintaqasi vodiyning 9 foizdan biroz kattaroq maydonini egallaydi va bu ulush vodiy landshaftlarining eng kichik ikkinchi ko'rsatkichidir. Unda 1421 ming kishidan ziyod aholi yashamoqda. Bu vodiy aholisining 14,7 foizini tashkil etadi demakdir. Aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> maydonga 843,7 kishiga teng. Ushbu zichlik vodiy landshaftlari mintaqasi zichligining eng yuqori ko'rsatkichlari bo'yicha ikkinchi o'rinni egallaydi. Aholi yashashi va xo'jalikni tashkil etish nuqtai-nazardan qulaylik darajasi yuqori bo'lgan bu mintaqada vodiyning 15 ta ma'muriy tumanlari va aholisi 100 ming kishidan oshgan Namangan shahri joy olgan. Mintaqaning To'raqo'rg'on tumanida 1 km<sup>2</sup> maydonga 1281,3 kishi, Oltinko'l tumanida 1093,0 kishi, Izboskan tumanida 936,2 kishi, Paxtaobod tumanida 984,1 kishiga to'g'ri keladi. Biroq, Furqat tumanida bu landshaft balandlik mintaqasida 1 km<sup>2</sup> maydonga 68,0 kishi, Chust tumanida 43,3 kishi to'g'ri keluvchi holatlar ham mavjud. Hattoki, Beshariq tumanida joylashgan ushbu landshaftlarda aholi umuman istiqomat qilmaydi.

### XULOSA

Vodiyning har bir landshaft balandlik mintaqasi o'ziga xos xususiyatlarga, hududiy tafovutlarga ega. Tabiiy geografik omillar asosida aholi ushbu mintaqalarning qulayliklaridan foydalangan holda qadimdan o'zlashtirib borgan. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida landshaft balandlik mintaqalari ichida o'tkazilgan tadqiqot xulosalari konussimon yoyilmalarning prolyuvial-allyuvial tekisliklari landshaftlari eng qulay mintaqasi sifatida, past tog'lar mintaqasi esa aholi va xo'jalikni tashkil etishda eng noqulay mintaqasi ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqotda konus yoyilmalarining prolyuvial-allyuvial tekisliklari, allyuvial tekisliklar, adir oralig'i allyuvial-prolyuvial tekisliklari landshaftlarida qulaylik yuqori bo'lganligi qayd etildi. Ushbu landshaftlarda zichlikning amaldagi me'yorlaridan kattalashib ketganligi kuzatiladi.



## GEOGRAFIYA

Tog' oldi prolyuvial tekisliklari, qadimgi allyuvial tekisliklar, adirlar va past tog'lar landshaftlarida zichlikning meyor ko'rsatkichlari nisbatan past ekanligi va bu hududlarda aholini tashkil etish imkoniyatlari nisbatan yuqori darajada saqlanib qolganligi asoslandi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдувалиев Х.А. Совершенствование территориальной организации населения на основе ландшафтного фактора (на примере Ферганской долины). Геогр. фан. фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Т., 2020. – 48 с.
2. Аҳмадалиев Ю., Абдувалиев Ҳ. Фарғона водийсида аҳоли жойлашувини тадқиқ этишда ландшафт ёндашувининг қўлланилиши // Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 57-жилд. –Тошкент, 2020. –Б. 83-87 б.
3. Жумаханов Ш., Мирзаахмедов Ҳ. Дарё ҳавзаларида аҳоли жойлашувининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбекистон география жамиятининг ахборотномаси, 36-жилд. –Т., 2010. –Б. 80-83.
4. Никанорова А.Д. Ландшафтно-геоэкологическое обоснование оптимизации водопользования в орошаемом земледелии Ферганской долины. Дисс.... канд. геог.наук. –М., 2015. – 169 с.
5. Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года.  
<https://www.undp.org/uz/uzbekistan/normativ-qonuniy-asos-1/>  
[https://strategy.uz/index.php?static=o\\_strategii](https://strategy.uz/index.php?static=o_strategii)